

OG‘ZAKI TARJIMADA TIL, NUTQ VA MADANIYATLARARO MULOQOTNING
O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Soatova Shahribonu Baxtiyor qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi talabasi.

Raimov Lazizbek Alisherovich

Ilmiy rahbar. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri.

telefon raqam: +998944220719 Gmail: soatovashahribonu@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20625669>

Annotatsiya. Ushbu maqolada og‘zaki tarjima jarayonida til, nutq va madaniyatlararo muloqotning o‘zaro bog‘liqligi kompleks lingvistik, psixolingvistik va pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda og‘zaki tarjimaning asosiy kognitiv mexanizmlari — tezkor idrok, operativ xotira, inferensiya va qayta ifodalash strategiyalari yoritiladi. Shuningdek, madaniy farqlar, diskursiv kontekst va pragmatik ekvivalentlikning tarjima jarayoniga ta’siri amaliy misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki tarjimaning samaradorligi nafaqat til tizimini mukammal bilishga, balki nutq madaniyati hamda madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liqdir. Tadqiqot zamonaviy tarjimashunoslikda integrativ yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki tarjima, lingvistika, nutq, madaniyatlararo muloqot, psixolingvistika, diskurs, pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ kompetensiya.

Abstract. This article examines the interrelationship between language, speech, and intercultural communication in oral interpretation from linguistic, psycholinguistic, and pragmatic perspectives. It highlights cognitive mechanisms such as rapid comprehension, working memory, inference, and reformulation strategies. The study shows that interpreting effectiveness depends not only on linguistic competence but also on intercultural awareness and discourse sensitivity.

Keywords: interpretation, linguistics, speech, intercultural communication, psycholinguistics, discourse, pragmatic equivalence, communicative competence.

Globalashuv jarayonining kuchayishi natijasida turli davlatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi kommunikatsiya kengayib bormoqda. Bu jarayonda og‘zaki tarjima xalqaro muloqotning muhim vositasiga aylanmoqda.

Og‘zaki tarjima yozma tarjimadan farqli ravishda vaqt cheklovi ostida amalga oshiriladi.

Tarjimon bir vaqtning o‘zida nutqni eshitish, tahlil qilish, tushunish va qayta ifodalash jarayonlarini bajaradi. Bu esa yuqori darajadagi lingvistik, psixolingvistik va kommunikativ kompetensiyani talab etadi.

Maqsad: og‘zaki tarjimada til, nutq va madaniyatlararo muloqotning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda tahlil qilish.

Vazifalar: lingvistik, nutqiy va madaniy jihatlarni o‘rganish va tahlil qilish.

Obyekt: og‘zaki tarjima jarayoni.

Predmet: til, nutq va madaniyatlararo muloqot integratsiyasi.

Ogʻzaki tarjimada tilning lingvistik asoslari Til ogʻzaki tarjimaning asosiy vositasi boʻlib, u leksik, grammatik, semantik va pragmatik qatlamlardan tashkil topgan murakkab tizimdir.

Tarjimon bir vaqtning oʻzida ikki til tizimini boshqaradi va ularni tezkor tahlil qiladi.

Lingvistik muammolar: idiomatik birliklar polisemiya terminologik farqlar sintaktik nomuvofiqlik Ogʻzaki tarjimada maʼno va kommunikativ funksiya ustuvor hisoblanadi.

Misollar: He kicked the bucket → U vafot etdi Break the ice → suhbatni boshlamoq Take it easy → xotirjam boʻl A piece of cake → juda oson ish It's raining cats and dogs → juda kuchli yomgʻir yogʻmoqda. Ogʻzaki nutq intonatsiya, urgʻu, pauza va emotsional ohang kabi elementlarni oʻz ichiga oladi. Tarjimon bir vaqtning oʻzida eshitish, tahlil qilish va tarjima qilish jarayonini bajaradi.

Psixolingvistik mexanizmlar: tezkor idrok operativ xotira selektiv diqqat inferensiya qayta ifodalash Misol: "Really?" → hayrat / shubha / tasdiq (kontekstga bogʻliq). Har bir til ortida madaniyat yotadi. Shu sababli tarjimon nafaqat til oʻtkazuvchi, balki madaniy vositachi ham hisoblanadi. Muammolar: realiyalar frazeologizmlar hazil va kinoya madaniy konnotatsiya Strategiyalar: adaptatsiya parafraz ekvivalent tanlash neytrallashtirish. Ogʻzaki tarjimada alohida soʻz emas, balki butun nutq oqimi (diskurs) muhimdir.

Kontekst: lingvistik, situation, madaniy Tarjimon har bir gapni shu uch kontekst asosida tahlil qiladi. Tarjimon quyidagi kompetensiyalarga ega boʻlishi kerak: lingvistik kompetensiya diskursiv kompetensiya pragmatik kompetensiya madaniyatlararo kompetensiya strategik kompetensiya

Bu kompetensiyalar ogʻzaki tarjima sifatini belgilaydi. Sinxron tarjima – bir vaqtning oʻzida tarjima Ketma-ket tarjima – nutqdan keyin tarjima Pichirlab tarjima – past ovozda individual tarjima Har biri oʻziga xos kognitiv yuklama talab qiladi.

When push comes to shove → Vaziyat keskinlashganda Black sheep of the family → Oq qargʻa Jeopardize the process → Jarayonni xavf ostiga qoʻyish. Not exactly what we expected → Kutilgan darajada emas. Xulosa. Ogʻzaki tarjima murakkab lingvistik va kognitiv jarayon boʻlib, unda til, nutq va madaniyatlararo muloqot oʻzaro uzviy bogʻlangan holda faoliyat yuritadi.

Tarjimonning muvaffaqiyati faqat til bilimiga emas, balki psixolingvistik tezkorlik, madaniyatlararo kompetensiya va diskursni toʻgʻri anglash qobiliyatiga ham bogʻliqdir. Shu sababli zamonaviy tarjimashunoslikda integrativ yondashuv muhim oʻrin tutadi.

Xulosa: Ogʻzaki tarjima zamonaviy kommunikatsiya jarayonining ajralmas qismi boʻlib, u til, nutq va madaniyatlararo muloqotning uzviy integratsiyasi asosida amalga oshadi. Tadqiqot davomida ogʻzaki tarjima jarayonida lingvistik birliklar, pragmatik maʼno, diskursiv kontekst hamda madaniy omillarning oʻzaro chambarchas bogʻliqligi tahlil qilindi.

Shuningdek, tarjimon faoliyatida tezkor idrok, operativ xotira, inferensiya va qayta ifodalash kabi psixolingvistik mexanizmlar muhim oʻrin egallashi aniqlandi. Tarjimon nafaqat til bilimiga, balki nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya va madaniyatlararo tafovutlarni anglash qobiliyatiga ham ega boʻlishi zarur.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, ogʻzaki tarjimada muvaffaqiyatga erishish uchun pragmatik ekvivalentlikni saqlash, kontekstni toʻgʻri anglash hamda madaniy moslashtirish strategiyalaridan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, globallashtirish sharoitida turli millat va madaniyat vakillari oʻrtasidagi muloqotni taʼminlashda ogʻzaki tarjimonning vazifasi yanada ortib bormoqda.

Demak, zamonaviy tarjimashunoslikda integrativ yondashuv asosida tilshunoslik, psixolingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya yo‘nalishlarini uyg‘un holda o‘rganish og‘zaki tarjima sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010.
2. G‘afurov I. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012.
3. Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
4. Minyar-Beloruchev R. K. Posledovatelnyy perevod. – Moskva: Voenizdat, 1969.
5. Muminov O. Ingliz va o‘zbek tillarida tarjima masalalari. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Nida E. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
7. Seleskovitch D., Lederer M. Interpréter pour traduire. – Paris: Didier Érudition, 1984
8. Vinogradov V. S. Vvedeniye v perevodovedeniye. – Moskva: Institut obshchego srednego obrazovaniya, 2001.